

ROSSIYA-UKRAINA KONFLIKTI VA UNING XALQARO MUNOSABATLAR NAZARIYALARI BO'YICHA TAHLILI.

Akbarova Ziyoda Abrorovna

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

"Xalqaro munosabatlar" fakulteti talabasi

E-mail: ziyodaakbarova06@gmail.com

Annotatsiya. 2022-yil fevral oyida boshlangan Rossiya-Ukraina urushi ko'plab olimlar tomonidan turli xil nazariyalar orqali tahlil qilishmoqda. Ushbu maqola bu mojaroni xalqaro munosabatlarning asosiy nazariyalari – realizm, liberalizm, konstruktivizm va marksizm nuqtai nazaridan tahlil qiladi. Maqolada realizmni konfliktning asosiy sabablari (NATO kengayishi, xavfsizlik dilemmasi va kuch muvozanati)ni eng yaxshi izohlovchi nazariya deb hisoblanadi, liberalizmni esa eng zaif deb baholanadi, chunki u xalqaro institutlarning samarasizligini ochib beradi. Konstruktivizm identifikatsiya va tarixiy narrativlarning rolini, marksizm esa iqtisodiy-imperial manfaatlarni qo'shimcha izoh sifatida ko'rsatadi. Maqola mojaroning sabablari, davom etishi va hal qilish yo'llarini nazariy jihatdan yoritib, realizmning ustunligini ta'kidlaydi, lekin boshqa nazariyalar tinchlik imkoniyatlarini ko'rsatishini qayd etadi. Tahlil John Mearsheimer, Kenneth Waltz, Alexander Wendt kabi mutaxassislar ishlariga asoslanadi va 2025-yil holatiga ko'ra urushning davom etayotganini hisobga oladi.

Kalit so'zlar: Rossiya-Ukraina mojarosi, xalqaro munosabatlar nazariyalari, realizm liberalizm, konstruktivizm, marksizm, NATO kengayishi, Xavfsizlik dilemmasi, demokratik tinchlik nazariyasi, identifikatsiya va narrativlar, imperializm kuch muvozanati.

Rossiya-Ukraina mojarosi (2022-yil fevraldan boshlab davom etayotgan) bugungi kunda dunyoning eng yirik qurolli to'qnashuvlaridan biri bo'lib, millionlab odamlarning hayotiga ta'sir ko'rsatmoqda. Mojaro Rossiyaning Ukrainaga bostirib kirishi bilan boshlangan bo'lib, 2025-yil oxiriga kelib ham davom etmoqda. Rossiya qo'shinlari Ukraina sharqiy va janubiy hududlarida jang qilmoqda, Ukraina esa G'arb yordami bilan mudofaa qilmoqda. Ushbu mojaroni xalqaro munosabatlar nazariyalari orqali tahlil qilish orqali uning sabablari, qanday davom etishi va hal etish yo'llarini yaxshiroq tushunishimiz mumkin. Eng avvalo, realizm nuqtayi nazaridan tahlil qilishni boshlaymiz va qolgan nazariyalar bilan davom ettiramiz.

Realizm (klassik va neorealizm): Davlatlar o'rtasidagi kuch muvozanati va xavfsizlik dilemmasi.

Realizm nazariyasi (Hans Morgentau klassik realizmi va Kenneth Waltz neorealizmi) ushbu konfliktni davlatlarning kuch va xavfsizlik manfaatlariga

asoslanib tushuntiradi. Klassik realizmda davlatlar o'z manfaatlarini himoya qilish uchun qurol va kuchdan foydalanadi. Neorealizm esa tizimli anarxiya (davlatlar o'rtasida markaziy hokimiyat yo'qligi) sababli har bir davlat o'z xavfsizligini ta'minlash uchun kuch to'plashga intilishini ta'kidlaydi. Rossiya-Ukraina mojarosida bu nazariya quyidagilarni ko'rsatadi. Birinchidan, Rossiya NATOning sharqqa kengayishini o'z xavfsizligiga tahdid deb hisoblaydi. 2008-yilgi NATOning Bukarest sammitida Ukraina va Gruziyaga a'zolik taklif qilingan edi, bu Rossiyaning "xavfsizlik buferi" (sharqiy Yevropa) yo'qolishiga olib kelishi mumkin edi. Shu sababli ham Rossiya haligacha bunga qarshi turib kelmoqda. Realistlar (masalan, John Mearsheimer) ushbu konfliktni G'arbning "liberal illuziyalari" sababli yuzaga kelgan deb hisoblaydi, ya'ni NATO kengayishi Rossiyaning xavfsizlik dilemmasini kuchaytirdi va u hujumkor harakatga o'tdi. Ikkinchidan, Klassik realizm g'oyasiga asoslanib Vladimir Putin shaxsiy hokimiyatini mustahkamlash uchun "milliy qayta tiklanish" (Rossiya imperiyasini qayta tiklash) g'oyasini ishlatgan.⁷

Yuqorida keltirgan dalillarimizga asoslanib ayta olamizki, realizm ushbu konflikt eng yaxshi tushuntira oluvchi eng yaxshi nazariyadir, chunki u kuch muvozanati va xavfsizlik tahdidlarini asosiy sabab deb ko'rsatadi. Biroq, bu nazariya mojaroni faqat Rossiya tahdidlari bilan izohlaydi va Ukraina suverenitetini e'tiborsiz qoldirishi mumkin. Shuning uchun ham biz liberalizmga murojaat qilamiz.

Liberalizm: Institutsional va demokratik tinchlik nazariyasi

Liberalistik nazariya (Immanuel Kant va Robert Keohane) xalqaro institutlar, demokratiya va iqtisodiy bog'lanishlar urushni kamaytirishini ta'kidlaydi. Liberalizm "demokratik tinchlik" nazariyasi (ya'ni demokrat davlatlar bir-biriga qarshi urushmaydi) va institutsionalizm (xalqaro tashkilotlar hamkorlikni har doim oshirib borishi) asosiy o'rin tutadi. Ushbu konflikt nuqtai nazaridan olib qaraydigan bo'lsak, birinchidan, Rossiya avtoritar rejim bo'lib, Ukraina esa G'arbgacha yaqinlashib, demokratiya va Yevropa Ittifoqi yo'lini tanlagan. Liberalizm bo'yicha, Rossiya Ukrainaning muvaffaqiyatli demokratiyasidan qo'rqadi, chunki bu Rossiya ichida avtoritarizmga qarshi namuna bo'lishi mumkin. Ikkinchidan, NATO va Yevropa Ittifoqi kengayishi liberalizm bo'yicha "tinchlik loyihasi" bo'lib, Ukraina uchun iqtisodiy va xavfsizlik foydalari keltirgan. Shuningdek, urush liberal institutlarning zaifligini ko'rsatdi, ya'ni BMT va xalqaro huquq Rossiyani to'xtata olmadi. Faqat liberalizmga tayanibgina konfliktni yaxshi tahlil qila olmaymiz, chunki u Rossiyaning harakatlarini faqat avtoritarizm bilan izohlaydi va kuch muvozanatini e'tiborsiz qoldiradi. Shu bilan birga ushbu urush liberal institutlarning samarasizligini ham yaqqol namoyon qilib berdi.⁸

⁷ Mearsheimer, J. (2022) "The Causes and Consequences of the Ukraine War"

<https://www.cirs.org/en/horizons/horizons-summer-2022-issue-no.21/the-causes-and-consequences-of-the-ukraine-war>

⁸ Waltz, K. (1979). *Theory of International Politics*. <https://archive.org/details/theoryofinternat00walt>

Konstruktivizm - Identifikatsiya va narrativlar

Konstruktivizm (Alexander Wendt) xalqaro munosabatlarni identifikatsiya, normalar va ijtimoiy qurilish orqali tushuntiradi. Davlatlarning o'zini "do'st" yoki "dushman" deb ko'rish urushni keltirib chiqaradi degan qarash konstruktivizmning asosiy tayanch tushunchasi bo'lib, buning asosida Rossiya-Ukraina urushini tahlil qiladigan bo'lsak, eng avvalo shuni aytishimiz lozimki, Rossiya "Russkiy mir" (rus dunyosi) identifikatsiyasini ishlatib, Ukrainani "birodar xalq" deb ko'radi, lekin Ukraina mustaqilligi va G'arbga yaqinlashishini o'ziga nisbatan "xiyonat" deb hisoblaydi. Ukraina esa o'zini mustaqil millat sifatida ko'radi, uning nazaricha Rossiya bir paytlar mavjud bo'lgan buyuk Rossiyani esa imperiya qoldiqlari xolos. Shu sababdan ham o'z suverinetetini saqlab qolish uchun bor kuchi bilan harakat qiladi. Mojaro 2014-yildagi Qrim anneksiyasi va Donbassdagi separatizm orqali identifikatsiya ziddiyatini yanayam kuchaytirdi. Konstruktivizm mojaroni liberalizmdan ko'ra yaxshiroq tushuntiradi, chunki u identifikatsiya va tarixiy narrativlarning rolini ko'rsatadi.

Marksizm (tanqidiy nazariya): Imperializm va iqtisodiy manfaatlar.

Tanqidiy marksizm (Antonio Gramsci, Immanuel Wallerstein) mojaroni imperializm va iqtisodiy manfaatlar orqali tushuntiradi. Rossiya-Ukraina urushi bo'yicha tahlil qiladigan bo'lsak, birinchidan, Rossiya Ukrainani o'z ta'sir doirasida saqlab qolishni xohlaydi, chunki Ukraina tabiiy gaz tranziti va qishloq xo'jaligi resurslarini nazorat qiladi. Bunday vaziyatda G'arb (AQSh va Yevropa) davlatlari Ukrainani o'z bozoriga jalb qilish va Rossiyani zaiflashtirish uchun qo'llanmoqda. Shuningdek, urush kapitalizmning global raqobatini ko'rsatadi, ya'ni Rossiya va G'arb o'rtasida resurslar va ta'sir uchun kurash urushning asosiy sabablaridan biridir. Bu nazariya ham konfliktni yaxshi tushuntiradi, chunki u iqtisodiy va imperial manfaatlarini ko'rsatadi.⁹

Qaysi nazariya eng yaxshi va qaysi biri eng yomon tushuntiradi?

Realizm mojaroni eng yaxshi tushuntiradi, chunki u kuch muvozanati, xavfsizlik dilemmasi va NATO kengayishini asosiy sabab deb ko'rsatadi. Bu nazariya mojaroni realistlik va tizimli izohlaydi.

Liberalizm esa, farqli o'laroq konfliktni eng yomon tushuntiradi, chunki u institutsional va demokratik tinchlikni ta'kidlaydi, lekin urush liberal institutlarning samarasizligini ko'rsatdi.

Konstruktivizm va marksizm qo'shimcha izohlar beradi, lekin asosiy sababni emas.

Mojaro xalqaro munosabatlar nazariyalarining kuch va kamchiliklarini ko'rsatdi, realistlik yondashuv eng realistlik, lekin liberalizm va konstruktivizm tinchlik yo'llarini ko'rsatishi mumkin.

⁹ UN OHCHR: Report on the Human Rights Situation in Ukraine (1 June – 30 November 2025):

<https://ukraine.ohchr.org/en/Report-on-the-Human-Rights-Situation-in-Ukraine-1-June-30-November-2025>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mearsheimer, J. (2022). "The Case for a Ukrainian Offensive". Foreign Affairs.
2. Waltz, K. (1979). Theory of International Politics.
3. Wendt, A. (1999). Social Theory of International Politics.
4. Keohane, R. (1984). After Hegemony.
5. ACLED va CFR ma'lumotlari (2025-yil holati).
6. UN va IAEA hisobotlari (2025).